



YOSHLAR O‘RTASIDA INTERNET TAHDIDLARINING TARQALISHI, ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI

Ilmiy rahbar: Polvanova Dilrabo Tagaymuratovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi

Rasuljonov Bexruzbek Ravshanjon o‘g‘li

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti ikkinchi kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi globallashuv davrida yoshlar o‘rtasida Internet jahon axborot tarmog‘ida, keng tarqalayotgan internet tahdidlari, jumladan, kiberbullingning tarqalish sabablari, shakllari, asoratlari haqida gap boradi. Kiberbulling raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar bilan makonda va zamonda tengma-teng rivojlanishi natijasida ancha keng tarqalmoqda va yoshlarning ruhiyatiga sezilarli salbiy ta‘sir o‘tkazib kelmoqda. Kiberbullingda nishon qurbonning shaxsiy ma‘lumotlariga qaratilib, ularni tarqatish yoki o‘zgacha talqin qilish orqali tahqirlash, qo‘rqitish, tahdid qilish orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqola orqali hozirgi kunda ommaviy ravishda foydalanib kelinayotgan ijtimoiy tarmoqlar hamda o‘yin platformalarida keng tarqalgan kiberbulling shakllari va ularning oldini qanday olish mumkinligi haqida gap boradi.*

Kalit so‘zlar. *Kiberbulling, Internet jahon axborot tarmog‘i, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli texnologiyalar, psixologik ta‘sir, onlayn tahqirlash, qo‘rqitish, tuhmat, shaxsiy ma‘lumotlar, kiberxavfsizlik, globallashuv, huquqiy himoya, internet madaniyati, raqamli etik qoidalar, “O‘lik moviy kit”.*

Kirish. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan ijtimoiy tarmoq platformalari odamlarning kundalik aloqasida muhim o‘rin egallash bilan birgalikda turli xil salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Yoshlar o‘rtasidagi barcha kiberbulling shakllariga ijtimoiy tarmoq messenjerlari asosiy makon bo‘lib xizmat qiladi va uning barcha shakllarining keng tarqalishiga sharoit yaratib beradi.



Internetda bezorilik, yoki kiberbulling, qasddan haqorat qilish, haqorat qilish, tahdid qilish, tuhmat qilish va zamonaviy aloqa vositalaridan foydalangan holda, boshqalarga zarar yetkazuvchi ma'lumotlarni yetkazishdir. Bezorilik axborot makonida axborot-kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi. Xususan, internetda elektron pochta orqali, lahzali xabar almashish dasturlarida, ijtimoiy tarmoqlarda, forumlarda, shuningdek, video portallarda buzg'unchi video materiallar va xabarlarini joylashtirish orqali (odatda odobsiz so'zlar bilan) yoki mobil telefon orqali (masalan, SMS xabarlar yoki bezovta qiluvchi qo'ng'iroqlar orqali).

Ko'pincha "troller", "bezorilar" yoki „mobbers“ deb ataladigan bu bezoriliklarning aybdorlari ko'pincha yashirin tarzda harakat qilishadi, shuning uchun jabrlanuvchi zo'ravonlik harakatlarini kim amalga oshirayotganini bilmaydi, ya'ni ular soxta yoki o'zgalar nomiga ochilgan akkauntlar ortidan harakat qiladilar. [1]

Kiberbulling ifoda etilishi va ta'sir etish doirasiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Jumladan:

1. Haqorat va tahdidlar – Onlayn muhitda kimnidir doimiy ravishda haqorat qilish yoki qo'rqitish.
2. G'iybat va mish-mish tarqatish – Odamning obro'siga putur yetkazish maqsadida yolg'on yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatish.
3. Shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish – Kimningdir shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarini ruxsatsiz tarqatish.
4. Soxta akkaunt va sahifalar yaratish – Boshqa odamning nomidan akkaunt ochib, unga zarar yetkazish yoki noto'g'ri ma'lumotlar tarqatish.
5. Zo'ravonlikni tasvirlaydigan kontent tarqatish – Jabrlanuvchini obro'sizlantirish uchun uning surat yoki videolarini ruxsatsiz tarqatish.
6. Onlayn stalkerlik – Kimningdir harakatlarini internetda kuzatib, uni doimiy ravishda bezovta qilish.
7. Trollizm– kimnidir ataylab asabiylashtirish yoki haqorat qilish maqsadida provokatsion fikrlar yozish.



8. Xakerlik – bironing akkauntiga buzib kirib, uni sharmanda qilish yoki ma'lumotlarini o'g'irlash.

9. Klonlash – kimnidir nomidan soxta akkaunt ochib, u haqda noto'g'ri taassurot yaratish.

Bugungi kunda ongga ta'sir etish, odamlarni manipulyatsiya qilish tobora keng tarqalmoqda. Bunday holatlar ba'zan shunchaki zavq olish uchun amalga oshirilsa, ba'zan esa moddiy manfaat ko'zlanadi. Xususan, shaxsiy ma'lumotlarni qo'lga kiritish orqali pul undirish yoki ularni boshqa maqsadlarda o'zlashtirish hollari uchraydi. Bu kabi ishlarning ortida ko'pincha yuqori bilim va tajribaga ega bo'lgan kompyuter mutaxassislari turadi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan murakkab tizimlar orqali ma'lumotlar maxfiy ravishda o'g'irlanadi va tahdid etuvchini oshkor etish qiyinlashadi. Bunday holatlar nafaqat alohida shaxslarga, balki butun jamiyatga xavf tug'diradi. Shu sababli, axborot xavfsizligiga e'tibor berish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli tahdidlardan xabardor bo'lish juda muhim.

So'nggi paytlarda "kiberbulling" atamasi keng qo'llanila boshladi. U zo'ravonlikning virtual shakli bo'lib, elektron vositalar orqali tajovuzkor harakatlarni amalga oshirishni anglatadi. Bu hodisa chet elda va Rossiyada tez tarqalib, shaxsni anonim tarzda ta'qib qilish imkoniyatini beradi. Agar oldin tengdoshlar o'rtasidagi ta'qib haqiqiy hayotda ro'y bersa, bugungi kunda u virtual olamga ko'chmoqda. "YouTube"da kaltaklash sahnalarini joylashtirish, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish kabi usullar keng tarqalgan.

Kiberbullingning o'ziga xos jihatlari mavjud: stalkerlarning anonimligi, qurbonni doimiy ta'qib qilish imkoniyati, jabrlanuvchining qo'rquv sababli kattalardan yordam so'rashga jur'at etmasligi. Internetda anonimlik mavjudligi esa zo'ravonlarni jazodan qochishga imkon beradi. Eng zaif guruh – o'smirlar bo'lib, ko'pincha ular ilgari ham real hayotda bezorilikka uchragan bo'ladi. 11-16 yosh oralig'idagi bolalar mish-mishlar va haqoratlarga nisbatan sezgir bo'lib, kiberbulling ularning ruhiyatiga jiddiy zarar yetkazadi.

Ko'pincha o'qituvchilar va ota-onalar bu holatni kech sezishadi. Biroq, o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar nizoni yumshatishga yordam beradi. Kiberbulling



turli usullar bilan sodir etiladi: maxsus haqoratli sahifalar yaratish, istehzoli karikaturalar joylashtirish, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish yoki qurbon nomidan soxta e'lonlar berish. Ayniqsa, yoshlar orasida bu usul ommalashgan. Ularning fotosurat va telefon raqamlari jinsiy xizmatlar e'loni sifatida tarqatiladi yoki ijtimoiy tarmoqlarda haqorat va tahdidlar yog'diriladi.

Bu muammoni hal qilish uchun ota-onalar farzandlari bilan muloqot qilishlari, o'qituvchilar esa o'quvchilarning ruhiy holatini diqqat bilan kuzatishlari zarur. Shuningdek, Internet xavfsizligiga e'tibor qaratish, zo'ravonlikning oldini olish va uni erta bosqichda aniqlash muhim hisoblanadi. [4]

Kiberbullingdan jabrlanish odatda shaxsda o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishi, stress va kuchli depressiya holatlarini yuzaga keltiradi. Buning natijasida jamiyatdan yakkalanib qolish, o'zini izolatsiya qilish va eng yomoni shaxsiy rivojlanishdan orqada qolish ayniqsa, maktab o'quvchilarining dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishdan to'xtab qolishi kabi jarayonlar ko'zga tashlanadi. Agar bu jarayon o'z vaqtida aniqlab, to'xtatilmasa hali psixologik va ma'naviy jihatdan voyaga yetmagan o'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish xavf darajasi ortib borishi mumkin.

Yosh avlodni kiberbulling orqali zaralashda faqatgina ijtimoiy tarmoq messenjerlaridan foydalanilmaydi: ular onlayn o'yin ko'rinishida ham uchrab qolishi mumkin. Masalan: "O'lik moviy kit" va "MoMo" o'yinlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xususan, **"Moviy kit" o'yini** va uning xavfi haqida quyidagilar qayd etiladi:

➤ "Moviy kit" o'yini butun dunyo bo'ylab o'nlab o'smirlar va bolalar o'limiga sabab bo'ldi. Bu xavfli o'yin ota-onalarni jiddiy tashvishga solgan. "Moviy kit" yoshlarni o'ziga zarar yetkazishga va oxir-oqibat joniga qasd qilishga undaydi.

➤ Hozirga qadar 150 ga yaqin bolalar ushbu o'yin qurboni bo'lgan. Yil boshida "Blue Whale Challenge" nomi bilan tanilgan bu dahshatli tendensiya Rossiyada boshlangan bo'lib, tez orada boshqa mamlakatlarga ham tarqalgan. O'yinda ishtirokchilar "master" yoki "usta" deb ataluvchi shaxslar bilan ijtimoiy tarmoqlar orqali bog'lanadi. Dastlab, ularga 50 ta topshiriq beriladi. Boshlang'ich vazifalar oddiy ko'ringan bo'lsa-da, asta-sekin yosh ongni manipulyatsiya qilish



boshlanadi. Oxirgi topshiriq esa o‘z joniga qasd qilish bo‘lib, aynan shu jihati bilan o‘yin o‘ta xavfli hisoblanadi. [5]

“Momo Challenge” o‘yini va uning xavfi haqida quyidagilar qayd etiladi:

➤ bu ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali tarqalgan uydirma va internet o‘yini. Ma’lum qilinishicha, bolalar va o‘smirlar Momo ismli foydalanuvchi tomonidan zo‘ravonlik hujumlari, o‘z-o‘ziga zarar yetkazish, boshqalarga zarar yetkazish va o‘z joniga qasd qilish kabi bir qator xavfli vazifalarni bajarish uchun ta’qib qilingan.

➤ 2018-yil iyul oyida bu hodisa butun dunyo miqyosidagi tarqalganligi haqidagi da’volarga qaramay, haqiqiy shikoyatlar soniga nisbatan kam bo‘lgan va huquqni muhofaza qilish organlari bevosita ushbu o‘yin natijasida hech kimga zarar yetkazilganligini tasdiqlay olmadilar.

➤ “Momo Challenge” butun dunyoda vahima uyg‘otdi va hukumat hamda bolalar xavfsizligi himoyachilarining shoshilinch ogohlantirishlariga sabab bo‘ldi. Momoning xavotirli xabarlariga duch kelgan bolalar haqidagi xabarlar keng tarqaldi, ota-onalar va tarbiyachilar orasida qo‘rquv kuchayishiga sabab bo‘ldi. [3]

Mutaxassislar ota-onalarga farzandlarining internetdagi harakatlarini diqqat bilan kuzatishni maslahat bermoqda. Bunday xavfli o‘yinlar haqida xabardor bo‘lish va yoshlarni ogoh qilish ularning hayotini saqlab qolishga yordam beradi. Nafaqat o‘yinlar balki, kiberbulingning har qanday ko‘rinishidan himoyalani uchun jamiyatda ayniqsa yoshlar orqasida internet savodxonligini oshirish va bu chora-tadbirlarga ota-onalardan tashqari malakali mutaxassislar va psixologlarni jalb etish o‘rinli bo‘lar edi.

Mutaxassislar tomonidan yoshlar orasida kiberbullinglarning tarqalishiga sabab bo‘luvchi omillar sifatida quyidagilar qayd etilgan. Jumladan:

1. Ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashishi – Instagram, TikTok, Facebook va boshqa platformalar yoshlar orasida juda mashhur bo‘lib, anonim yoki yashirin tazyiq imkonini beradi.

2. Nazoratning yetarli emasligi – ota-onalar va o‘qituvchilar internetdagi xavflarni to‘liq nazorat qila olmasligi.



3. Raqobat va bosim – maktab va universitet muhitida bosim, mashhurlik uchun kurash va qabul qilinish istagi.

4. Psixologik omillar – ba’zi yoshlar o’zlarining o’z-o’ziga ishonchsizligi yoki qasos olish istagi sababli kiberbulling bilan shug’ullanishadi.

5. Qonunlarning yetarli emasligi – ko’pgina mamlakatlarda kiberbulling bilan bog’liq qonunchilik yetarli darajada rivojlanmagan va mavjudlari targ’ib etilmaydi.

Bu kabi omillar yoshlar orasida tuzatib bo’lmas xatolarni keltirib chiqarishi yoki eng daxshatlisi o’z joniga qasd qilish holatlarini keltirib chiqaradi. Kiberbullingga qarshi kurashish uchun xalqaro va mahalliy tashkilotlar tegishli chora-tadbirlarni olib bormoqdalar. Jumladan, UNICEF – Kiberbulling va yoshlar haqidagi hisobotlarida quyidagilar qayd etiladi.

➤ O’zbekistondagi bolalar va yoshlar aholining 55 foizini tashkil etishini hisobga olgan holda, mamlakat hukumati yoshlarning ta’limi, rivojlanishi, ularni qo’llab-quvvatlash va bandligini ta’minlash masalalarini davlatning asosiy ustuvor yo’nalishlari deb belgilaydi. Mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga katta hajmdagi resurslar va kuchlar yo’naltirilmoqda.

➤ O’smirlarga qiyinchiliklarni yengishda yordam berish uchun UNICEF ko’nikmalarini rivojlantirish va ishga joylashish dasturlarini taqdim etadi. Bunda eng zaif qatlamlarga – chekka hududlardagi yoshlar, qizlar, nogironligi bo’lgan yoshlar, vaqtincha yashash joyidan ko’chganlar va ishsizlarga alohida e’tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, UNICEF yoshlarni o’z jamiyatlarini rivojlantirish, iqlim o’zgarishi va boshqa masalalar bo’yicha qarorlar qabul qilishga jalb qilish uchun platformalar yaratdi. So’nggi uch yil davomida 27 900 dan ortiq yoshlar (13 243 dan ortiq o’g’il va 14 683 qiz) quyidagi dasturlar orqali o’zlarining ijtimoiy, ijtimoiy-emotsional, tadbirkorlik, raqamli, STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) va ishga joylashish ko’nikmalarini rivojlantirdilar. Jumladan:

UPSHIFT - yoshlarni ijtimoiy innovatsiyalar va ijtimoiy tadbirkorlikka o’rgatish dasturi. Ushbu dastur 16 yoshdan 24 yoshgacha bo’lgan o’smirlar va yoshlarni qamrab oladi. Yoshlarni ijtimoiy va tadbirkorlik ko’nikmalarini



rivojlantirish, o'z jamoalari oldida turgan ijtimoiy muammolarga innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda qo'llab-quvvatlaydi. Haqiqiy hayotiy tajriba beradigan ochiq, do'stona va qo'llab-quvvatlovchi muhitda amalga oshirilayotgan mazkur dastur ijtimoiy himoyaga muhtoj o'smirlarga qaratilgan. Qizlar, chekka qishloqlardagi yoshlar, nogironligi bo'lgan yoshlar, internat muassasalarining bitiruvchilari, shuningdek, o'qimaydigan, ishlamaydigan va ta'lim olmayotgan yoshlar shular jumlasiga kiradi.

“Skills4Girls” ta'lim dasturi. Dastur chekka hududlardagi qizlar hamda ko'rish va eshitishda nuqsoni bo'lgan qizlarga kompyuter savodxonligi, dasturlash hamda boshqa raqamli va ishga joylashish uchun zarur bo'lgan boshqa ko'nikmalarni o'rganishga yordam beradi.

STEM sohasidagi UniSat ta'lim dasturi. UniSat ta'lim dasturi qizlarga mo'ljallangan bo'lib, ularga dasturlash, muhandislik, ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirishga, nanosun'iy yo'ldosh yaratish va uni stratosferaga uchirish jarayoni orqali koinot va iqlim fanlari bo'yicha bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Dasturni tugatgandan so'ng ko'pchilik qizlar fan va texnologiya sohasida o'qishni yoki o'z karyeralarini davom ettirmoqdalar.

Chatga asoslangan FunDoo raqamli platformasi. FunDoo raqamli platformasi yoshlarga, jumladan, ularning eng zaif qatlamlariga XXI asrning atrof-muhit va bandlik ko'nikmalarini interaktiv yoki mustaqil ravishda o'rganish orqali kelajakka tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi. [6]

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan raqamli texnologiyalarning o'smirlar ruhiy salomatligiga ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, dunyodagi har o'nta o'smirdan biri ijtimoiy tarmoqlar va kompyuter o'yinlariga qaramlik tufayli ruhiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu tadqiqot 2022-yilda Yevropa, Markaziy Osiyo va Kanadada yashovchi 11, 13 va 15 yoshli 280 mingga yaqin bola va o'smir ishtirokida o'tkazilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

- O'smirlarning 11 foizida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik belgilari kuzatilgan, bu ko'rsatkich qizlarda (13 foiz) o'g'il bolalarga (9 foiz) nisbatan yuqori;
- O'smirlarning 36 foizi do'stlari bilan muntazam onlayn muloqot qiladi;



- Taxminan 34 foizi har kuni raqamli o'yinlar o'ynaydi, 22 foizi esa bu mashg'ulotga kuniga to'rt soatdan ortiq vaqt sarflaydi;
- O'smirlarning 12 foizida o'yinlarga nisbatan muammoli xulq-atvor kuzatiladi, bu qizlarga qaraganda o'g'il bolalar orasida ko'proq uchraydi.

JSST ushbu raqamli qaramlik holatlari o'smirlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligidan xavotir bildirmoqda. Shu sababli, tashkilot ota-onalar, o'qituvchilar va sog'liqni saqlash mutaxassislarini bolalar va o'smirlarning raqamli texnologiyalardan foydalanishini nazorat qilishga va ularning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlashga chaqiradi. [7]

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar Ittifoqi, Ta'lim vazirligi va Ichki ishlar vazirligining kiberbulling bo'yicha maxsus hisobotlari haqida ochiq ma'lumot topilmadi. Kiberjinoyatlar va kiberxavfsizlik bo'yicha quyidagi tadbirlar va tashabbuslar amalga oshirilgan. Jumladan, Ichki ishlar vazirligi hisobotlariga ko'ra quyidagi tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan:

- 2022-yil may oyida Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazi tomonidan Farg'ona shahri va boshqa viloyatlardagi maktablar va mahallalarda "Internet va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish qoidalari" mavzusida targ'ibot tadbirlari o'tkazilgan. Tadbirda kiberjinoyatlar, jumladan, kiberbullingning zararli oqibatlari va ulardan himoyalani choralari haqida ma'lumotlar berilgan.
- 2024-yil sentabr oyidan YUNISEF va Ichki ishlar vazirligining Kiberxavfsizlik markazi bolalarni onlayn zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha hamkorlikda bolalarni onlayn tahdidlardan himoya qilish va ularning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdalar. [8]

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan yoshlar o'rtasida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash borasida quyidagilar amalga oshirilayotgani Internet jahon axborot tarmog'ida qayd etilgan. Jumladan:

- 2023-yil may oyida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, konfidensial axborotlarni himoya qilish yuzasidan seminarlar o'tkazilgan. Seminarda xodimlarning axborot-psixologik xavfsizligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.



O‘zbekiston yoshlar ittifoqi yoshlar o‘rtasida axborot-psixologik xavfsizlikni ta‘minlash borasida quyidagilar amalga oshirilayotgani Internet jahon axborot tarmog‘ida qayd etilgan. Jumladan:

➤ 2023-yil iyul oyida “Kiberxavfsizlik klubi” a‘zolari Ozarbayjonda tashkil etilgan “Yozgi kibermaktab-2023”da ishtirok etib, xalqaro kiberxavfsizlik bellashuvida birinchi o‘rinni egallashdi. Ushbu muvaffaqiyat yoshlarning kiberxavfsizlik sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini namoyish etdi.

➤ Shuningdek, YUNISEF tomonidan kiberbulling haqida o‘smirlar uchun “Kiberbulling haqida o‘smirlar bilishni xohlagan 10ta narsa” nomli qo‘llanma tayyorlangan bo‘lib, unda kiberbullingning oldini olish va unga qarshi kurashish usullari haqida ma‘lumotlar berilgan. [9]

Xulosa. Kiberbulling jamiyat rivoji uchun katta tahdid, chunki yurt kelajagi bo‘lgan yosh avlodni bu kabi salbiy unsurlardan asramaslik, yoshlarning kelajakka ishonch bilan qadam tashlashishini qiyinlashtirishi mumkin. Davlatimiz tomonidan yoshlarni Internet jahon axborot tarmog‘idan kelayotgan tahdidlardan ogohlantirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Biz yoshlar Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini rivojlantirishimiz zarur. Bu illatga qarshi kurashish uchun eng avvalo har bir shaxs o‘zining raqamli olamdagi huquq va majburiyatlarni anglashi, o‘zgalarni huquqlari va shaxsini hurmat qilishi darkor. Bundan tashqari har bir voyaga yetmagan bola Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanuvchisiga aylanar ekan, uning uchun javobgar bo‘lgan shaxslar ya‘ni, ularning ota-onalari, ustozlar, ta‘lim muassasasi psixologlari ma‘suliyatni his qilgan holda virtual muloqot qoidalarini o‘rgatib borishlari muhim. Davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan ta‘lim dasturlari ham bu borada samarali yechim bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tagaymuratovna, Polvanova Dilrabo. "CYBERBULLYING AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEM OF MODERNITY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12* (2019).



2. Polvanova, Dilrabo Tagaymuratovna. "EXTERNAL AND INTERNAL FACTORS INFLUENCING THE INDIVIDUAL IN THE PREVENTION OF CYBERBULLYING." *World of Scientific news in Science* 2.6 (2024): 257-266.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kiberbullying>
4. M.M. Murodov, E.A. Qo'chqorov, O. Odilov, I.A. Jo'ramirzayev: Ushbu mualliflar "Bolalar va o'smirlar orasida uchraydigan kiberbullying alomatlari" mavzusida tadqiqot ishlarini olib borishgan.
5. <https://www.theonespy.com/uz/xavfli-moviy-kit>
6. <https://www.unicef.org/> UNICEF – Kiberbullying va yoshlar haqidagi hisobotlari va amalga oshirgan islohotlari.
7. <https://zamin.uz/> Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan raqamli texnologiyalarning o'smirlar ruhiy salomatligiga ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot hisobotlari
8. <https://fviib.uz/> O'zbekiston Respublikasi IIV ning kiberbullyingga qarshi kurashish uchun olib borgan targ'ibot ishlarining hisobotlari.
9. <https://ict.xabar.uz/> O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda ta'lim vazirliklarining kiberbullyingga qarshi kurashishda olib borgan tashkiliy ishlari hisoboti.